

# “Ilmning ertangi kuniga ishonchimizni yo’qotyapmiz” nomli maqolaga MUNOSABAT

Kuni kecha kun.uz da **“Ilmning ertangi kuniga ishonchimizni yo’qotyapmiz” - o’zbek tilshunos va adabiyotshunoslari o’zlari qoldirilgan tashlandiq binodan ko’chishni istaydi**” (<https://kun.uz/news/2020/11/09/ilmning-ertangi-kuniga-ishonchimizni-yoqotyapmiz-ozbek-tilshunos-va-adabiyotshunoslari-ozlari-qoldirilgan-tashlandiq-binodan-kochishni-istaydi>) nomli maqola chop etildi.

Ma’lumki, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida ilm-fan, ilmiy-tadqiqot muassasalari o’z holiga tashlab qo’yilgandi, sohaga rag’bat, e’tibor berilmagan edi. Lekin quvonarli shuki, so’nggi yillarda Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahnamoligida ilm-fanni rivojlantirish, olimlarga qulay shart-sharoitlar yaratishga favqulodda alohida e’tibor qaratilmoqda.

Qisqa davr mobaynida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 8-iyundagi **“O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy tashkilotlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish hamda samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 366-son qaroriga** muvofiq Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlarining oylik maoshlari sezilarli darajada oshirildi. Akademiklarning gonorarlari uch baravar ko’paytirilib, ularning hordiq chiqarishlari va salomatliklarini tiklashlari uchun ijtimoiy himoya kuchaytirildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining **“Ilm-fan va ta’lim sohasidagi davlat tashkilotlarida ilmiy, ilmiy-pedagogik va mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchi ilmiy darajaga ega xodimlarga qo’shimcha haq to’lash tartibi to’g’risida”gi qarori** asosida 30 - 60 % qo’shimcha rag’batlantiruvchi ustama haq to’lash tartibi yo’lga qo’yildi. O’zbekiston olimlarining moliyaviy ahvolini yaxshilash, ilmiy-tadqiqot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, laboratoriyalarni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash, yosh olimlarni qo’llab-quvvatlash kabi masalalarda amalga oshirilayotgan ijobiy o’zgarishlarni MDH davlatlarining birortasida ham uchratib bo’lmaydi. Qisqasi, ushbu sohada aql bovar qilmas islohotlar amalga oshirilayotganiga aksariyat olimlar guvoh bo’lmoqdalar. Ming afsuski, nashr etilgan maqola mualliflari mavzuga benihoya yuzaki yondashganlar.

Maqolada keltirilgan *“Institut xodimlari shunday tashlandiq bino va shunga yarasha sharoitlar bilan 2014-yildan buyon ishlab kelmoqda, tag’in - ijarada”* deyishdan oldin jurnalist masalani sinchiklab o’rganishi, surishtiruv o’tkazishi lozim edi.

Ushbu 8 qavatli bino hozirda Fanlar akademiyasi Tarix instituti balansida, lekin shunday bo’lsa-da, har ikkala institut ham ushbu binodan foydalanishda teng huquqqa ega, hech qanday ijara haqi majburiyati yo’q. Shuning uchun O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bu binoda ijarada o’tiribdi, deyish mutlaqo to’g’ri emas. Shuni ta’kidlab o’tish joizki, *“...o’nlab idoralarga qilgan murojaatidan keyin ham biror natija ko’rmagan olimlar...”* tomonidan biror marta na Fanlar akademiyasi rahbariyati va na boshqa mutasaddi tashkilotlarga murojaat qilinmagan. Agar shu masalani ko’tarib chiqqan “olim”lar hamda “Kun.uz” tahririyati yuqori tashkilotga murojaat qilganlarida bino infratuzilmasini mustahkamlash to’g’risidagi aniq va tasdiqlangan ma’lumotdan xabardor bo’lar edilar. Qo’shimcha sifatida aytish joizki, ushbu binoga 2014-yilda ko’chib o’tilgach, joriy ta’mir amalga oshirilgan.

Maqolada keltirilishicha, *“Olimlar o’zining muqim binosi u yoqda tursin, ilmiy tadqiqotlar uchun oddiy sharoitlarga ega emas”*. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi **“Ilmiy-tadqiqot muassasalarining infratuzilmasini yanada mustahkamlash va innovatsion faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3365-sonli qarori** asosida Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalari bosqichma-bosqich ta’mirlanmoqda. Bundan tashqari, Fanlar akademiyasi rahbariyati tomonidan Tarix instituti binosini kapital ta’mirlash to’g’risidagi taklif bilan Vazirlar Mahkamasiga murojaat yo’llangan va unga ijobiy javob olingan. Unga ko’ra binoni ta’mirlash ishlari 2020-yilga rejalashtirilgan edi, ammo koronavirus pandemiyasi sababli bu institut binosini to’liq ta’mirdan chiqarish hamda jihozlash ishlari 2021-2022-yillarga ko’chirildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'nggi ikki yil mobaynida Davlat investitsiya dasturi doirasida Fanlar akademiyasi tasarrufidagi - Fizika-texnika, Astronomiya, Seysmologiya, Botanika, Zoologiya, Polimerlar kimyosi va fizikasi, Ion-plazma va lazer texnologiyalari, Mikrobiologiya hamda Yadro fizikasi institutlari kapital ta'mirlandi, Sharqshunoslik hamda Matematika institutlariga yangi binolar qurib berildi, ular ana shu yangi binolarda faoliyat ko'rsatmoqda. Hozirda Bioorganik kimyo hamda Umumiy va noorganik kimyo institutlarida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Xulosa o'rnida, taniqli shoir Sadriddin Salim Buxoriy aytganlaridek,

*Illat izlaganga illatdir dunyo,*

*G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.*

*Kim neni izlasa, topgay begumon,*

*Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.*

Yuqoridagi maqolada keltirilgan masalalar bo'yicha jurnalist surishtiruvini o'tkazilib, mutasaddi tashkilot bilan birgalikda o'rganilib, muammolar asoslangach, e'lon qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Bu kabi tekshirilmagan, asoslanmasdan e'lon qilinayotgan materiallar esa ommaviy axborot vositalariga bo'lgan ishonchni so'ndirishini eslatib o'tamiz!